O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Farg‘ona davlat texnika universiteti
rektori R.R.Tojiyev
_____
“ 3 ” 11 2026-yil

05.06.02 – TO‘QIMACHILIK MATERIALLARI TEXNOLOGIYASI VA XOMASHYOGA DASTLABKI ISHLOV BERISH

ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikga qabul qilish bo‘yicha

DASTUR VA BAHOLASH MEZONLARI

Farg‘ona - 2026

G.N.Valiyev, Yu. Ergashev, J.I.Oripov, N.M.Sattorov, A.O.Ibragimov, V.O.Xomidov 05.06.02 – "To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish" ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtixon dasturi. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2026. – 29 b.

Malakaviy imtixon dasturi va baholash mezonlari "Yengil sanoat muhandisligi" kafedrasi yig‘ilishida muhokama qilingan 2026-yil "____" _____, bayon №____.

Farg‘ona davlat texnika universiteti Ilmiy Kengashining 2026-yil "___" _____da bo‘lib o‘tgan majlisida ko‘rib chiqilgan va maqullangan.

Ushbu malakaviy imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6- oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ–4851-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22- maydagi 304-sonli "Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorlari va 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-yanvardagi 220/2-sonli "Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qaroriga muvofiq tayyorlangan.

Taqrizchilar:

Axunbabayev O.A	-	O‘zbekiston Tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot instituti direktori, t.f.d., prof.
Sarimsaqov O.SH	-	Namangan davlat texnika universiteti professori, t.f.d., DSc
Kirgizbayev A.A	-	"FERGANA GLOBAL TEXTILE" MChJ direktori

I.SO‘Z BOSHI

Ushbu dastur Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son Farmoniga, «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Vazirlar Mahkamasining qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 22 may, 304-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimiga majburiy talablarni belgilaydi.

Ilmiy texnika taraqqiyotining jadallashishi va ishlab chiqarish samaradorligini tobora ortishi muayyan ishlab chiqarish vazifalarini yechish imkoniyatiga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy xodimlar tayyorlanishini talab etmoqda. Shu munosabat bilan oliy texnikaviy ta’lim muassasalari oldida zamonaviy sohalarda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadal o‘sishi va ishlab chiqarish samaradorligining tez sur’atlarda ortishi talablariga javob beradigan, muayyan ishlab chiqarish vazifalarini yechish imkoniyatiga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy xodimlar tayyorlashdek muhim vazifa turadi.

Farg‘ona davlat texnika universitetida **05.06.02– “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish” ixtisosligi** bo‘yicha doktarantura (DSc) tayanch doktorantura (PhD) hamda mustaqil izlanuvchilikka kirish sinovida talabgorlarning quyidagi fanlardan ijodiy qobiliyatlarini baholash belgilangan:

1. Tabiiy tolani dastlabki ishlash texnologiyasi
2. Xom ashyoni to‘quvchilikka tayyorlash
3. To‘qimachilik materialshunosligi

Ayrim savollar umumkasbiy fanlardan olingan va tayanch doktoranturaga kirish jarayonida fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlar darajasini aniqlashga

yordam beradi.

Quyidagi dastur ana shu fanlar ishchi o‘quv dasturlari asosida tuzilgan

I-Bo‘lim. Tabiiy tolani dastlabki ishlash texnologiyasi

1. **“Arrali jindagi moslovchi qismlarning jinlash jarayoniga ta’siri”**
   Arrali jinning ishchi kamerasining tuzilishi. Arrali jinlashdagi moslovchi qismlarning jarayonga ta’siri. Arrali jinlarning ishchi parametrlarini taxlili.
2. **Arra tishlari ilashtirish qobiliyatining ish unumdorligiga ta’siri. Xomashyo valigining tarkibi va uning jarayonga ta’siri.**
   Xomashyo valigining tarkibi va uning jarayonga ta’siri. Xomashyo valigining aylanish tezligi hamda chigitning ishchi kameradan chiqish haqida. Arrali jinlash nazariyasi. Arrali jinlarni takomillashtirish tajribalari
3. **Tolani arra tishlaridan ajratish jarayoni.Tolani arra tishlaridan ajratish moslamalari.**
   Tolani arra tishlaridan ajratib olish jarayoni.Tolani arra tishlaridan ajratib olish usullari.Tolani arra tishlaridan ajratish moslamalari,ularning tuzilishi va ishlash jarayoni
4. **Chet el paxta tozalash korxonalarida arrali jinlash texnologik jarayoni.**
   Chet el paxta tozalash korxoanalrida arrali jinlash texnologik jarayoni. Xorijiy arrali jinlarning konstruksiyasi, ishlash jarayoni va texnologik ko‘rsatkichlari.
5. **Uzun tolali paxtani jinlash texnologiyasi**
   Uzun tolali paxtani jinlash. Uzun tolali paxtani jinlash jarayonining o‘ziga xosligi. Valikli jinlar turlari. Valikli jinlash texnologik jarayoni
6. **Valikli jinlarning tuzilishi va ishlash jarayoni**
   Valikli jinlarni konstruksiyasi, asosiy ishchi qismlari va ularning vazifalari. Valikli jinlarning ishchi qismlarini parametrlari.. DV-1M va 2DV rusumli valikli jinlar. Valikli jinlarning texnologik ko‘rsatkichlari. Valikli jinlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar.
7. **Chet el paxta tozalash korxonalarida valikli jinlash texnologik jarayoni**
   Chet el paxta tozalash korxonalarida valikli jinlash texnologik jarayoni. Xorijiy valikli jinlarni kontruksiyasi, ishlash jarayoni va texnologik ko‘rsatkichlari
8. **Paxta tozalash korxonalarida ishlatiladigan vintli konveyerlar**
   Paxta tozalash korxonalarida ishlatiladigan vintli konveyerlarning turlari. Vintli konveyerlarning ishlatilish joyi va ulardan foydalanish. Vintli

konveyerning konstruksiyasi, ishlashi va texnologik ko‘rsatkichlari

9. **Paxta tozalash korxonalarida ishlatiladigan elevatorlar**

   Paxta tozalash korxonalarida ishlatiladigan elevatorlarning turlari. Elevatorlarning ishlatilish joyi va ilardan foydalanish. Elevatorlarning konstruksiyasi, ishlashi va texnologik ko‘rsatkichi.

10. **Chigit tozalash texnologiyasi.**

    Linterlash texnologik jarayonidan avval chigitni tozalashning ahamiyati. Linterlanadigan chigitni tozalash texnologik jarayoni. Chigit tozalagichlarni konstruksiyasi, asosiy ishchi qismlari, ishlash jarayoni va texnik tavsifi.

11. **Momiq ajratish(linterlash) jarayoni**.

    Momiq ajratish jarayoni va uning moxiyati. Momiq olish miqdori va uning ahamiyati. Linterlash texnologik jarayonida ishtirok etuvchi asosiy ishchi qismlar.

12. **Momiq ajratish (linterlash) uskunalari.**

    Linterlarning konstruksiyasi va ishlash jarayoni. Linterlarni asosiy ishchi qismlari. Momiq ajratish uskunalarining texnik va texnologik ko‘rsatkichlari.

13. **Momiq ajrarish jarayonini boshqarish**

    Momiq olish jarayonida chigitni tukdorligi va hamda ish unumdorligini sozlash jarayoni va mexanizmlari. Momiq olish jarayonida chigitni tukdorligi hamda ish unumdorligini sozlash mexanizmlarining tuzilishi va ishlashi. Linterlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar.

14. **Tolani tozalash texnologiyasi**

    Toladagi ifloslik va nuqsonlar tasnifi**.** Tolani tozalashning ahamiyati. Tola sifatiga qo‘yiladigan talablar **.** Tolani tozalash jarayonini paxtani dastlabki ishlash texnologiyasidagi o‘rni**.** Tolani tozalash texnologiyasi va usullari.

15. **O‘rta tola navlarini tozalash uskunalarining ishlash jarayoni va tuzilishi**

    O‘rta tolali paxta navlarini tolasini o‘ziga xos tomonlari. O‘rta tola navlarini tozalash uskunalarining turlari, tuzilishi, ishlash jarayoni va asosiy ishchi qismlari. 3OVPM, 1VP, 2PV va 1VPU rusumli tola tozalagichlarni konstruksiyasi, ishlash jarayoni va texnologik ko‘rsatkichlari.

16. **Tola va tolali mahsulotlarni toylash texnologiyasi**

    Tola va tolali mahsulotlarni toylashning ahamiyati. Tolani namlash texnika va texnologiyasi. Toylash jarayoniga qo‘yiladigan talablar. Tolali maxsulotlarni toylash uskunalarining klassifikatsiyasi.

II-bo‘lim. XOMASHYONI TO‘QUVCHILIKKA TAYYORLASH

1. **To‘quvchilikka keltiriladigan iplar va o‘ramalar turlari.**
   To‘qimachilik va engil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohalari. O‘zbekiston va jaxon to‘qimachilik sanoatini rivojlanishi. To‘qima ishlab chiqarish soxasida yaratilgan yangi texnika va texnologiyalarning yo‘nalishlari. O‘zbekistonda to‘qima ishlab chiqarish texnologiyalarning asosiy yo‘nalishlari. To‘quvchilikka keltiriladigan iplar va ular o‘ralgan o‘ramalar turlari. Iplarni to‘quvchilikga tayyorlashda qatnashadigan jarayonlar. Ularni turlari va sonini aniqlovchi asosiy omillar.
2. **Iplarni qayta o‘rash. Qayta o‘rashda o‘ramaning tuzilish omillari o‘rash tezligi**
   Iplarni qayta o‘rashdan maqsad. Qayta o‘rash jarayoniga qo‘yiladigan asosiy texnologik talablar. Ip chuvatish turlari. G‘altakdan chuvatish. Tuftakdan chuvatish. Ipni chuvatishda xarakat berish. O‘rash turlari. Parallel o‘rash turi va bunday o‘rash usulini qo‘llanish doirasi. Paralelsimon o‘rash turi va bunday o‘rash usulini qo‘llanish doirasi. Kressimon o‘rash turi va bunday o‘rash usulini qo‘llanish doirasi. Qayta o‘rashda o‘ramaning tuzilish omillari. Qayta o‘rash tezligi. Siljish burchagi. O‘ramalarga xarakat uzatish usullari. O‘rama urchug‘ini o‘zgarmas tezlik bilan aylantirish. O‘rama urchug‘ini o‘zgaruvchan tezlik bilan aylantirish. Ishqalanish orqali xarakat uzatish.
3. **Qayta o‘rash mashina va avtomatlari**
   Qayta o‘rash mashina va avtomatlarini turlari. Qayta o‘rash mashinasining texnologik zonalari. Yigirish tuftagidan ipni chuvatish zonasi. Taranglash va tozalash nazorat zonasi. Iplarni o‘rash zonasi. Qayta o‘rash avtomatlari. Qayta o‘rash avtomatlarini avtomatlashtirish darajasi bo‘yicha o‘rganish.
   Birinchi darajali qayta o‘rash avtomatlari va ularda bajariladigan amallar. Ikkinchi darajali qayta o‘rash avtomatlari va ularda bajariladigan amallar. Uchinchi darajali qayta o‘rash avtomatlari va ularda bajariladigan amallar. To‘rtinchi darajali qayta o‘rash avtomatlari va ularda bajariladigan amallar. Qayta o‘rash avtomatiga ip taxtlash texnologik chizmasi. Qayta o‘rash avtomatlarida iplarni o‘rash. Qayta o‘rash avtomatlarini afzalliklari. Qayta o‘rash avtomatlarida yuqori sifatli bobinalarni tayyorlashni belgilovchi 5 ta asosiy talablar.
4. **Qayta o‘rash jarayonida ballon va uni hosil bo‘lishi, ip tarangligi, ip tozalash usullari.**
   Qayta o‘rash jarayonida ballon va uni hosil bo‘lishi. Qayta o‘rash jarayonidagi ip tarangligi. Taranglovchi moslamalar. Taranglovchi moslamalarni turlari. Qayta o‘rash jarayonida nazorat tozalash moslamalari.

Nazorat-tozalash usullari. Nazorat-tozalash turlari. Elektron nazorat-tozalash moslamalari. Qayta o‘rash jarayonida ip nuqsonlari. Ip nuqsonlarini Slassimat III va Slassimat IV bo‘yicha tekshirish. Qayta o‘rash avtomatlarida ip uchlarini tugunsiz ulash (Splising). Bo‘yash uchun iplarni o‘rash. Ip nazoratchisi.

5. **Qayta o‘rash jarayonining texnologik omillari. Qayta o‘rash jarayonidagi iplar nuqsonlari va chiqindilar**

   Qayta o‘rash jarayonining texnologik omillari. Qayta o‘rash mashina va avtomatlarini haqiqiy ish unumdorligi. Qayta o‘rash jarayonidagi iplar chiqindilari. Jarayondagi chiqindilarni kamaytirish yo‘llari. Qayta o‘rash jarayonidagi iplar nuqsonlari. Qayta o‘rash jarayonlarida yaratilgan yangi texnika va texnologiyalar. Jarayonni avtomatlashtirish darajasini o‘sishi. Qayta o‘rash jarayonini rivojlantirish istiqbollari.

6. **Tandalash jarayoni bo‘yicha umumiy ma’lumotlar**

   Tandalash jarayoniga qo‘yiladigan talablar. Tandalash jarayonini prisipial sxemasi. Tandalash usullari. Tandalash usullarining qo‘llanish hollari. Tandalash romlari. Tandalash romlariga quyiladagigan talablar. Tandalash romlaridan iplar qo‘zg‘almas va aylanuvchi (g‘altakchalardan) o‘ramalardan (bobinalardan) chuvatib Olish.

7. **Tandalash romlari jihozlangan moslamalar**

   Tandalash romlari jihozlangan moslamalar. Ip yo‘naltirgich. Iplarni yo‘naltirish uchun. Taranglovchi moslama. Ip łozalash moslamasi. Tandalash romlari turlari. V-simon rom va uni tuzilishi. To‘g‘ri burchakli rom va uni tuzilishi. Aravachali rom va uni tuzilishi.Uzluksiz zanjirli rom va uni tuzilishi. Kasetali rom (Magazine). Avtomatik rom va uni tuzilishi. Maxsus rom va uni tuzilishi.

8. **Guruhlab va piltalab tandalash mashinalari**

   Guruhlab tandalash mashinalari. Tandalash mashinasining umumiy texnologik sxemasí: Zamonaviy tandalash mashinalarida Gazlama zichligini ta’minlash. Guruhlab tandalash hisobi. Guruhlab tandalash usulining afzallik va kamchiliklari.

9. **Guruhlab va piltalab tandalash mashinalari.**

   Piltalab tandalash. Piltalab tandalash usulini qo‘llanish hollari. Piltalab tandalashda iplarni barabanda joylanishi. Piltalarni barabanda joylanishi va omillari. Piltalab tandalash mashinasining texnologik sxemasi. Piltalab tandalash hisobi. Piltalab tandalash usulining afzallik va kamchiliklari. Manevrli tandalash.

10. **Tandalash jarayonining texnologik omillari**

    Tandalash jarayonining texnologik omillari. Guruhlab va piltalab tandalash

usullarini qiyosiy taxlili. Tandalash jarayonida uchraydigan nuqsonlar. Tandalash mashinalarining unumdorligi. Guruhlab tandalash mashinasining xaqiqiy ish unumdorligi. Piltaiab tandaiash mashinasining xaqiqiy ish unumdorligi.

11. **Tandalash jarayonidagi chiqindilar. Tandalash jarayoni va uskunalarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari**

Tandalashjarayonidagi chiqindilar. Tandalashjarayonida chiqindilar miqdorini kamaytirish yo‘llari. Zamonaviy avtomatlashtirilgan tandalash mashinalari. Zamonaviy tandalash jarayoni uskunalariga qiyosiy tavsif. Jarayonni rivojlantirishda kompyuter va informasion texnologiyalarni qo‘llanilishi va roli. Tandalash jarayoni va uskunalarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.

12. **Ohorlash jarayonining maqsadi. Iplarni ohorlashda kimyoviy, fizik va mexanik jarayonlar.**

Ohorlash jarayonining maqsadi. Ohorlash jarayoniga qo‘yiladigan talablar. Ohorlangan iplarni ega bo‘ladigan xususiyatlari. Iplarni ohorlashda kimyoviy, fizik va mexanik jarayonlar. Ohorlash moddalari. Ohorlash moddalariga qo‘yiladigan talablar. Elimlovchi moddalar. Ohor tayyorlash va uni sifati. Ohor tayyorlashning usullari.

III-bo‘lim. TO‘QIMACHILIK MATERIALSHUNOSLIGI

1. **Ohor sifatini tekshirish**

Ohor sifatini tekshirish. Ohor qovushqoqligi. Ohor konsentrasiyasi. Ohorlanish miqdori va uni aniqlash. Ohorlanish miqdori va to‘quvchilik jarayoni samarasining bog‘lanishi. Muqobil ohorlanish miqdori omillari. Ohor resepti.

2. **Ohorlash mashinalari. Ohorlash mashinalarini turlari**.

Ohorlash mashinalari. Ohorlasn mashinalarining asosiy zonalari. Ohorlash mashinalarini turlari. Ohorlash mashinasining umumiy texnologik sxemasi. Bir (a) ikki (b) ohor tog‘orali ohorlash mashinasini texnologik sxemasi. Tanda g‘altaklarini o‘rnatish zcnasi (tirgovichlal). Mashina qismlariga xarakat taqsimlash. Ohor tog‘orasi. Siqish darajasi va uni ohorlash miqdoriga ta’siri. Tandalab-ohorlash mashinalari. Zamonaviy ohorlash mashinalari.

3. **Quritish usullari**

Barabanli quritish usuli. Barabanli quritish usulini afzallik va kamchiliklari. Kamerali quritish usuli. Kamerali quritish usulini afzallik va kamchiliklari. Aralash quritish usulini afzallik va kamchiliklari. Maxsus quritish usuli.

Maxsus quritish usulini afzallik va kamchiliklari. Ohorlash omillari va ularni rostlash.

4. **Ohorlash omillari va ularni rostlash**
   Ohorlash omillari. Ohorlash tezligi. Ohorlash jarayonida iplarning cho‘zilishi. Ohorlash jarayonida iplarning namligi. Ohorlash jarayonida to‘quv g‘altagiga o‘rash zichligi.
5. **Ohorlash jarayonidagi avtomatik rostlagichlar**
   Ohorlash jarayonidagi avtomatik rostlagichlar. Ohorlash mashinasidagi avtomatik rostlagichlarni axamiyati. O‘ralish tezligini va zichligini ta’minlovchi rostlagich. Ohor satxi rostlagichi. Ohor xarorati rostlagichi. Tanda namligi rostlagichi.
6. **Ohorlash jarayonidagi chiqindilar va nuqsonlar**
   Ohorlash mashinasining unumdorligi. Ohorlash jarayonidagi nuqsonlar. Ohorlash jarayonidagi chiqindilar.
7. **Ohorlashning yangi usullari**
   Avtomatik ohor tayyorlash tizimi. Ohorlashning yangi usullari. Ko‘pikda ohorlash. Qizdirib eritilgan ohor bilan ohorlash. Erituvchida eritilgan ohor bilan ohorlash. Ohorlash va emulsiyalash jarayonida iplarning fizik — mexanik xususiyatlarining o‘zgarishi. Namlash-ohorlash tizimi. Ohorlash jarayonini avtomatlashtirish. Ohorlashjarayonini rivojlantirish istiqbollari.
8. **Iplarni ohorlash jarayonida chiqindilarni kamaytirish yo‘llari**
   Iplarni ohorlash jarayonida chiqindilarni kamaytirish yo‘llari, jarayon unumaorligi. Ohorlash jarayonida qo‘llanilayotgan yangi texnika va texnologiyalar. Jarayonni avtomatik tizim orqali boshqarishni zamonaviy usullari. Jarayonni rivojlantirishda kompyuter va informasion texnologiyalami qo‘llanilishi va roli.
9. **Tanda iplarini to‘quv dastgoxi anjomlaridan o‘tkazish yoki ulash maqsadi va talablari lp o‘tkazish jarayonining maqsadi**.
   LP o‘tkazish jarayonining prisipi. lp o‘tkazish jarayoni qo‘llanish hollari. Zamonaviy lamel, gula, shoda va tig‘ turlari va ularni hisoblash. Zamonaviy o‘tkazish avtomati. Tanda iplarini payvandlash mashinasining texnoiogik chizmasl. Tanda iplarini ulash.
10. **Ulash mashinasining asosiy qismlari va avtomat ulash tizimi**
    Ulash mashinasining asosiy qismlari. Avtomat ulash tizimi. lp o‘tkazish va bog‘lash soxasida yaratilgan yangi texnika va texnologiyalar. lp o‘tkazish va bog‘lash jarayoni texnologik omillarini rostlash va o‘rnatish.

Ixtisoslik bo‘yicha ijodiy qobiliyati, shuningdek ilmiy va ilmiy texnik axborot bilan mustaqil ishlash, tizimli mustaqil taxlil qilish, hulosalar

chiqarish bo‘yicha bilimini aniqlash.

Ilm-fan tushunchalarining mohiyati, ilm fanni jamiyatni rivojlantirishdagi o‘rni; Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish maqsadi va vazifalari; Ilmiy ish namunalari: dissertatsiya, maqola, tezis nima maqsadda va qanday yoziladi, qanday mavzuda maqola va tezislar yozgansiz, ularda yoritilgan masala va muammolarga qisqacha izoh va xulosalar bering; Tajriba ma’lumotlarini qayta ishlash, o‘lchash xatoliklari, tizimga xos va tasodifiy xatolar; Fanlarni o‘rganishda, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni; Fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning mazmun-mohiyati, ularning soha fanini rivojlantirishdagi roli; Mutaxassislik bo‘yicha axborot olish manbaalari, ular bilan ishlash, saralash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, internetdan foydalanish tartibi; Siz tanlagan sohaning bugungi kundagi erishilgan darajasi, yutuqlari, undagi mavjud ilmiy, ilmiy-texnik muammolar, istiqboldagi rivojlanishi; Yengil sanoat va to‘qimachilik sohasi bo‘yicha Davlat siyosati. Siz yashayotgan xududdagi yangi qo‘shma korxonalar, innovatsion ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga qo‘llash, fan- ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi; Bakalavriatda va magistraturada o‘qish davrida tanlagan mutaxassisligingiz bo‘yicha qanday ilmiy tadqiqot ishlari olib borgansiz, qanday ilmiy ishlar e’lon qilgansiz (jurnaldagi, to‘plamdagi maqola, maqola tezisi), qanday ilmiy anjumanlarda ma’ruza bilan qatnashgansiz; Kashfiyot va ixtirolar to‘g‘risida umumiy tushunchalar. Ularning fan va texnikani rivojlantirishdagi o‘rni.

05.06.02– «To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish» ixtisosligi bo‘yicha doktarantura (DSc), tayanch doktorantura (PhD) hamda mustaqil izlanuvchilikka kirish sinovida bilim darajasini belgilovchi mutaxassislik fanidan davogarlar bilimini baholash mezonlari

“Tayanch doktorantura (PhD)ga kirish sinovida bilim darajasini belgilovchi mutaxassislik” fani bo‘yicha da’vogarlar bilimini baholash 2 bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich yozma- og‘zaki suhbat ko‘rinishida bo‘lib da’vogarning bilimi 50 ball bilan baholanadi. Ikkinchi bosqich yozma ish ko‘rinishida bo‘lib unda ham da’vogarning bilimi 50 ball doirasida baholanadi. Da’vogarlar tomonidan mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash va baholash uchun 05.06.02– «To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish» ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD)ga kirish sinovida bilim darajasini belgilovchi mutaxassislik fani dasturida nazarda tutilgan mavzular kiritilgan.

Yozma – og‘zaki suhbatning baholash mezonlari

Tayanch doktorantura(PhD)ga ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD) hamda mustaqil izlanuvchi doktarantura (DSc va PhD) ga kiruvchilarning suhbat bo‘yicha savollarga bergan yozma-og‘zaki javoblarni baholashda ularning fanni medologiyasi, uslubi, predmeti, rivojlanish tarixi, tadqiqot yo‘nalishi, Tabiiy tolani dastlabki ishlash texnologiyasi, Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va jihozlari, Mashinalarni loyihalash asoslari, Korxonalarni loyihalash fanlari bo‘yicha chuqur va mukammal bilimlarga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari mohiyatini chuqur anglagan va ularni amalga oshirish bo‘yicha puxta tayyorgarlikka ega bo‘lgan, mavjud muammolarni ilmiy asoslay oladigan va mutaxassislik bo‘yicha ijodiy qobiliyatga ega, shuningdek ilmiy va ilmiy texnik axborot bilan mustaqil ishlay oladigan, tizimli mustaqil taxlil qilish, hulosalar chiqara olish qobiliyati aniqlanadi. Imtixon biletlaridagi har bir savolni javobi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Bayon qilingan materialning to‘laligi va mazmunliligi.
2. Berilgan javobni imtihon biletidagi savolga mosligi.
3. Berilgan javobning mantiqan ketma-ketligi va lo‘ndaligi.
4. Ilmiy-uslubiy tilda bayon qilinish darajasi, aniq ta’riflar va atamalardan foydalanilishi.
5. Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyot bilan bog‘lay olishi va amaliy ilmiy – amaliy ahamiyatini tushuna olish qobiliyatini mavjudliligi.
6. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasida Xukumat qarorlari va ularni ijrosini ta’minlashda buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahlilning o‘rni va ahamiyatini tushunish darajasi.
7. Ilm Fan borasidagi Davlat siyosati va xuquqiy me’yoriy xujjatlarni tushuna olish darajasini mavjudligi.
8. O‘z fikrini bayon qila olishi, mustaqil fikrlashi, bunda nazariya va amaliyotga tanqidiy yondoshilganligi.

Suhbat bo‘yicha yozma-og‘zaki javoblarni baholash unga qo‘yilgan yuqoridagi talablardan kelib chiqib, quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- Tayanch doktoranturaga kiruvchilarning mutaxassislik fanini bilishi ularning berilgan variantdagi barcha savollarga yuqoridagi talablarga to‘la javob bergani holda, unga fan uchun ajratilgan umumiy ballning 43 – 50gacha miqdorda ball qo‘yiladi.
- Tayanch doktoranturaga kiruvchilarning mutaxassislik fanini bilishi ularning berilgan variantdagi barcha savollarga yuqoridagi talablarga to‘la javob berishga harakat qilgan bo‘lsa, unga umumiy ballning 35 -42 ball qo‘yiladi.
- Tayanch doktoranturaga kiruvchilarning mutaxassislik fanini bilishi ularning

berilgan variantdagi savollar mohiyatini yuzaki (yoki qisman) ochib bergan bo‘lsa, lekin ular bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni bermagan va bayonda mantiqiy yaxlitlikka erishmagan bo‘lsa, umumiy ballning 28 – 34 ball qo‘yiladi.
Tayanch doktoranturaga kiruvchilarning mutaxassislik fanini bilishi ularning berilgan variantdagi savollar mohiyatini ocha olmagan va unga izoh bermagan bo‘lsa umumiy balning 0 – 27 ball qo‘yiladi va talabgor ijobiy baholanmagan bo‘ladi

Yozma ish bo‘yicha baholash mezonlari:

Da’vogarlarning bilimini yozma ish ko‘rinishda baholash uchun 3ta savoldan iborat ko‘p variantli biletlar tuziladi. Har bir savol uchun ballar qo‘yiladi. Birinchi va ikkinchi savol uchun javoblarni 15 ball, uchinchi savol uchun javoblarni 20 ball bilan baholash ko‘zda tutilgan.

Yozma ish bo‘yicha da’vogarlarning bilimlarini baholash mezonlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 5 (A’lo)	«Yozma ish» variantlarida qo‘yilgan savollarga nazariy jihatdan to‘g‘ri va ijodiy yondoshgan holda ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javoblar keltirilgan hamda mustaqil fikr mulohazalar va xulosalar bilan boyitilgan bo‘lsa 43 – 50 gacha miqdorda ball qo‘yiladi.
4 (Yaxshi)	Qo‘yilgan savollarga to‘liq javob berishga harakat qilgan, nazariy jihatdan to‘g‘ri va ijodiy yondoshgan holda ilmiy qarashlar bilan ifodalangan, lekin ularning mohiyatini, xususiyatini, u bilan bog‘liq tushunchalarni, hamda ta’sir etuvchi omillarni bayon etishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan yoki bildirilgan fikrlarni va masalani yechimini to‘la asoslay olmagan holda 35 -42 ball qo‘yiladi.
3 (Qoniqarli)	Da’vogar qo‘yilgan savollar mohiyatini yuzaki(yoki qisman) ochib bergan va masalani yechishga urinish qilgan bo‘lsa, lekin u bilan bog‘liq bo‘lgan tusshnchalar xaqida to‘liq ma’lumotni yoritmagan bo‘lsa, shuningdek fikr-muloxazalar va xulosalar bayon etilmagan bo‘lsa 28 – 34 ball qo‘yiladi.

Qoniqarsiz	Da’vogar savollarga va masalaga yechim topmagan va ularga izox bermagan bo‘lsa 0 – 27 ball qo‘yiladi

05.06.02 – “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish” ixtisosligi bo‘yicha doktarantura (DSc), tayanch doktorantura (PhD) hamda mustaqil izlanuvchilikka kirish sinovidagi namunaviy savollar ro‘yxati

“Tabiiy tolani dastlabki ishlash texnologiyasi” fanidan

1. **Paxtani quritishga ta’sir etuvchi omillar haqida ma’lumot bering?**
   Tayanch iboralar: Zichlik, terim turi, xajm, namlik, to‘da, ilashish, ichki ishqalanish.
2. **Quritish agenti tayyorlashning sxemasi va jarayonini taxlilini asoslab bering?**
   Tayanch iboralar: filtr, yoqilg‘i nasos,uchqun, manometr, xavo quvuri.
3. **Quritish agentini asosiy funksiyasi nimadan iborat va unga qanday talabalar qo‘yiladi?**
   Tayanch iboralar: Issiqlik, xavo, temperatura, issiqlik miqdori, quritish barabani, vaqt, xavo tezligi.
4. **Paxtani va uning tolasini namlash jaryonini tushuntiring?**
   Tayanch iboralar: Ifloslanganlik, tozalash, namlik, suv bo‘g‘i, kondensor, tola tozalash.
5. **Paxta va tola texnologik jarayonlarni qaysi nuqtalarida namlanadi, sxemasini ayting?**
   Tayanch iboralar: Quvur, tarnov, tola tozalagich, tirsak, tola.
6. **Paxtani tozalashgga ta’sir etuvchi omillar haqida ma’lumot bering?**
   Tayanch iboralar:Mayda iflosliklar, Yirik iflosliklar,qoziqli baraban,tirqishlar.
7. **Arrali jinlarni ta’minlagichlari sxemalarini chizing, texnik xarakteristikasi va farqlarini ayting?**
   Tayanch iboralar: Variator, setka, qoziqchalar, titish darajasi, paxta bo‘lakchalari, tozalash samaradorligi.
8. **Jinlarni asosiy ishchi elementlari nimalardan iborat va ular qanday funksiyalarni bajaradi?**
   Tayanch iboralar: Fartuk, xomashyo valigi, zichlik, tezlik, ulyuk kazerogi, saplo.
9. **Paxtani jinlash jarayonida nuqson aralashmalar hosil bo‘lishi va unga ta’sir etuvchi qanday omillar mavjud?**

Tayanch iboralar: Namlik, arra, kolosnik, zichlik, xomashyo valigi,tuganaklar, po‘stloq.

10. **Jin ishlash jarayoniga chigit tarog‘i joylashuvi, arrali silindrni kolosnik yuzasidan ishchi kameraga kirib turish balandligi va kolosnikli ishchi zonasidagi oraliq o‘lchamiga ta’sir qay tarzda yuz beradi ?**
Tayanch iboralar: Chigit, chigit tarog‘i, paxta, burchak xolati, arra, kolosnik, tirqishlar.
11. **Xorijiy jin uskunalarining turlari, konstruksiyalari va ishlash tartibini tushuntiring?**
Tayanch iboralar: Ishchi kamera, cho‘tka, ta’minlagich, arra, kolosnikli panjara.
12. **Texnologik jarayonlarda tolali chiqindilar chiqadigan nuqtalar sxemasini yoritib bering?**
Tayanch iboralar: Separatorlar, paxta tozalagichlar,momiq,ulyuk,kalta tolalar, linter, kondensor.
13. **Tola tozalash sifatiga ta’sir etuvchi omillar haqida ma’lumot bering?**
Tayanch iboralar: Tola namligi,birikish kuchi,ifloslik turlari, Tozalash samaradorligi, Tituvchi baraban.
14. **Paxta tozalash korxonalarida tolali chiqindilar maxsulot sifatida 3 ta turga bo‘linadi, bularni batafsil ta’riflab bering?**
Tayanch iboralar: Tolali o‘lik, Regeneratsiyalangan tola Paxta momig‘i, puch maydalangan chigit , tolali chigit mag‘zi.
15. **Tolani toylash jarayoni, diagrammasi, ta’sir etuvchi asosiy omillar haqida ma’lumot bering?**
Tayanch iboralar: preslash zichligi, bosim, plunjer yuli, toy balandligi, tola, shibbalash..
16. **AQSh va O‘zbekiston PTKlari qanday ko‘rsatkichlari bo‘yicha farqlanadi?**
Tayanch iboralar: Chigit, linterlash, ishchi kamera, Paxta tayyorlash maskanlari, modul, toylash.
17. **PTM ng umumiy texnologik jarayon sxemasini bayon qiling?**
Tayanch iboralar: texnologik jarayon, qabul jarayoni, uskunalar.
18. **Paxtaning kondision vaznini hisoblash nima uchun kerak?**
Tayanch iboralar: tara, brutto, netto, tarozi, formula.
19. **LKM asbobida chigitli paxtaning iflosligini aniqlash tartibini tushuntiring?**
Tayanch iboralar: vaqti, vazifasi, uzellar harakati.
20. **PTK turlari, ularda ishlatiladigan asosiy texnologik uskunalar rusumi, birbiridan ishlashdagi farqi?**

Tayanch iboralar: quritish, tozalash, jinlash.

21. Chigitli paxtani uzoq vaqt saqlashda o‘z-o‘zidan qizishiga (chirishiga) qanday faktorlar sababchi?

Tayanch iboralar: namlik, chirish, qizish, sovutish.

22. Chigitli paxta namligi ishlab-chiqarish jarayoniga salbiy ta’siri nimadan iborat?

Tayanch iboralar: namlik, qizish, ifloslik, sifat.

23. Chigitli paxta komponentlari, ularning namligini aniqlash usuli haqida bayon qiling?

Tayanch iboralar: tayyor mahsulotlar, namlik formulasi, tuzatish koyeffitsenti.

24. Arrali barabanli tozalagich uskunalarning asosiy ish organlari ishlash jarayonini tushuntiring?

Tayanch iboralar: barabanning gabarit o‘lchami, ishlash prinspi.

25. Kolosniklarning turlari va ularning paxta tozalashda bajaradigan vazifasi?

Tayanch iboralar: kolosnik turlari, farqi, kamchiligi

26. Chigitli paxtani jinlashda qo‘yiladigan texnologik talablar?

Tayanch iboralar: toladorlik, samaradorlik, sifat

27. Jinlash jarayonida tolada qo‘shimcha qanday nuqsonlar bo‘lishi mumkin?

Tayanch iboralar: nuqsonlar turlari, kelib chiqishi va ularni bartaraf etish

28. Ishchi kamerada hosil bo‘ladigan xom ashyo valigi harakatiga tushuntirish bering?

Tayanch iboralar: tezligi, harakatga keltiruvchi mexanizm, zichlik

29. Arrali jinning konstruktsion tuzilishi qanday ish organlaridan iborat?

Tayanch iboralar: detallar, materiali, konstruksiya, uzellar.

30. Arralar tishini tolaga salbiy ta’sir qilmasligi uchun nimalarni amalga oshirish kerak?

Tayanch iboralar: detallar, materiali, konstruksiya, uzellar.

31. Tolani tozalash usullariga bog‘liq qanday tozalash mashinalari bor?

Tayanch iboralar: tozalash, usullari, uzatmalari, turlari.

